

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O'quv markazi (bundan buyon matnda – "Ijrochi") nomidan, Nizom asosida ish yurituvchi direktor I. G. Xamidova bir tomondan va "Toshkent IEM" AJ (bundan buyon matnda – "Buyurtmachi") nomidan asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

1. Shartnoma predmeti

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-dekabrdagi PQ-4544-son "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 6-bandi ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonunining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va tushuntirish maqsadida, "Ijrochi" davlat xaridlari bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilishni o'z zimmasiga oladi, o'z navbatida, "Buyurtmachi" esa mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddat va shartlar asosida shartnoma haqini to'lab berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Malaka oshirish belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejasini va o'quv dasturi asosida olib boriladi.

2. Tinglovchilar soni, o'qitish qiymati va hisob-kitob qilish tartibi

2.1. "Ijrochi" "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga asosan 1 (bir) ta tinglovchi malakasini oshiradi.

2.2. Bir tinglovchi uchun 36 (o'ttiz olti) soatlik o'quv dasturidan iborat bo'lgan masofaviy ta'lim shaklidagi malaka oshirish kursining qiymati 1 500 000 (bir million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

2.3. Ushbu shartnomaning umumiy summasi 500 000 (bir million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

2.4. "Buyurtmachi" shartnomadagi umumiy summaning 30% ni shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 bank ish kunida va qolgan 70% ni malaka oshirish kursi muddati tugallanib, tomonlar bajarilgan ishlar dalolatnomasi imzolangan kundan e'tiboran 5 bank ish kunida «Ijrochi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlariga muvofiq respublikamizda ta'lim sohasida xizmat ko'rsatishga doir o'rnatilgan tartib qoidalarga o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritilgan taqdirda mazkur shartnoma bandlariga ham mutanosib tarzda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

2.6. O'quv kursining tinglovchisi o'qish jarayonida tinglovchilar safidan chiqarilgan taqdirda "Ijrochi"ning hisob raqamiga o'tkazilgan mablag' "Buyurtmachi"ga qaytarilmaydi.

3. Ijrochining majburiyatlari

3.1. Mazkur shartnomaning 2.3-bandidagi mablag'ning kamida 30% "Ijrochi"ning hisob raqamiga o'tkazilgandan so'ng "Buyurtmachi"ning xodimlari tinglovchi sifatida qabul qilinganligi to'g'risida buyruq chiqariladi.

3.2. O'quv kursining boshlanishidan kamida uch kun oldin "Ijrochi"ning mas'ul xodimlari tinglovchilar safiga kiritilgan xodimlarni malaka oshirishga yuborilishini ta'minlash to'g'risida "Buyurtmachi"ga yozma yoki og'zaki murojaat qiladi.

3.3. Malaka oshirish jarayonining tashkil qilinishi va uning sifatli o'tkazilishiga "Ijrochi" mas'ul hisoblanadi.

3.4. "Ijrochi" mazkur maxsus o'quv kursini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martdagi 54-son qarori hamda Moliya vazirligining 2007-yil 25-iyuldagi 102-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O'quv markazi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshirilishini ta'minlaydi.

3.5. Pul mablag'i "Ijrochi"ning hisob raqamiga o'tkazilgan kundan boshlab 90 kun muddatda malaka oshirish o'quv kursini o'tkazish uchun tegishli tinglovchilar kontingenti ta'minlamagan taqdirda ular uchun o'tkazilgan mablag'larni "Buyurtmachi"ning hisob raqamiga qaytaradi.

3.6. Mazkur shartnomaning bandlariga qat'iy amal qilinishini ta'minlaydi.

4. Buyurtmachining majburiyatlari

4.1. "Ijrochi" bilan kelishilgan muddatda malaka oshirish kursini tashkil qilish uchun xodimlarni tinglovchi sifatida malaka oshirishga jalb qilish yuzasidan tegishli buyruqni rasmiylashtiradi.

4.2. Tinglovchilarning malaka oshirish jarayonida ishtirok etishlarini hamda bu borada "Ijrochi" bilan hamkorlikni ta'minlaydi.

4.3. Mazkur shartnomaning 2.3-bandida ko'rsatilgan mablag'ni 2.4. bandeda qayd etilgan muddatlarda "Ijrochi"ning hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazadi.

4.4. Mazkur shartnomaning bandlariga qat'iy amal qilinishini ta'minlaydi.

5. Tomonlarning javobgarligi.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan talablar asosida javobgar bo'ladi.

5.2. "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga tegishli xizmatlarni belgilangan muddatlarda ko'rsata olmasa kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5 foiz miqdorida "Buyurtmachi"ga penya to'laydi, lekin penya miqdori shartnoma umumiy qiymatining 5 foizidan oshmasligi kerak.

5.3. "Buyurtmachi" ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamasa, ya'ni shartnomaning 2.4. bandiga amal qilmagan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun 0,5 foiz miqdorida "Ijrochi"ga penya to'laydi, bunda penyaning miqdori shartnoma umumiy qiymatining 5 foizidan oshmasligi kerak.

6. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi.

6.1. Mazkur shartnomaga kiritilgan har qanday qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikki tomon imzolagan hollardagina haqiqiy kuchga ega bo'ladi.

6.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuviga binoan yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.

7. Nizolarni hal qilish tartibi.

7.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnoma bo'yicha paydo bo'lgan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi.

7.2. Agar kelishmovchiliklarni muzokara yo'li bilan hal qilib bo'lmasa, ularni Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisodiy sud orqali hal qilinadi.

8. Fors-major holatlar.

8.1. Tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar ("yong'in, suv toshqini va boshqa shu kabi holatlarda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari") va ushbu holatlar tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda majburiyat bajarilmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi.

8.2. Yuqoridagi holatlar yuzasidan darhol xabarnoma yuborilishi majburiydir.

9. Boshqa shartlar.

9.1. Shartnoma tomonlar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi hamda 2022-yilning 31-dekabriga qadar amal qiladi.

9.2. Ushbu shartnoma har ikki tomon uchun bittadan ikki nusxada tuziladi. Har ikki nusxa bir xil kuchga ega.

9.3. Tomonlarning bank rekvizitlari, yuridik manzillari va aloqa vositalari o'zgarganda bu o'zgarishlar haqida bir-birlarini 5 ish kuni muddatida xabardor qiladilar.

Izoh: Shartnomani ro'yxatdan o'tkazish uchun 71-239-97-73, 71-239-97-72, 71-239-97-75, raqamlari bilan bog'lanib shartnoma raqamini mas'ul xodimdan olish shart. Shartnomani chop etib va unga buyurtmachi tomonidan imzolab hamda muhr bosib taqdim etiladi.

Malaka oshirish kursiga olib kelinganda ikkinchi tomonidan imzo va muhr qo'yiladi. Hisobvaraqa va akt elektron shaklda yuboriladi.


"IJROCHI"

Nomi: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O'quv markazi

Yuridik va pochta manzili: Indeks 100052,
Toshkent sh., M. Ulug'bek tumani,
Darxontepa 7-uy
Sh/h: 400110860262667096200092001
STIR 300529638 IFTUT 85590

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining Amaliyot boshqarmasi


W/ 23402000300100001010 Toshkent shahri Markaziy banki
HKKMda STIR 201122919 Bank kodj 00014

Direktor  I. G. Xamidova
(Imzo) (F.I.SH)

Huquqshunos: _____
(Imzo) (F.I.SH)

"BUYURTMACHI"



Rahbar  _____
(Imzo) (F.I.SH)

Huquqshunos: _____
(Imzo) (F.I.SH)

Bitta nusxasi imzo va muhr bilan qo'yilgan holda ijrochiga qaytarilsin.